

A.QAHHOR VA O.GENRI HIKOYALARIDA INSONIY HIS TUYG'ULARNING IFODALANISHI

Baxtiyarova Ruxshona Akbarbek qiz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbekiston, Toshkent
e-mail: baxtiyorovaruxshona742@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikkita asarda hayotning murakkabligi, qiyinchiliklari, o'ziga yarasha go'zalliklari, insoniy tuyg'ular va ularning o'zaro munosabatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Konflikt, anor, shaftoli, po'rtahol, oila, muloqot.

Аннотация: В данной статье в двух произведениях освещены сложность жизни, ее трудности, присущая ей красота, человеческие чувства и их взаимоотношения.

Ключевые слова: Конфликт, гранат, персик, портахол, семья, общение.

Abstract: In this article, the complexity of life, its difficulties, its own beauty, human feelings and their mutual relations are highlighted through the fruits "Pomegranate" and "Peach and Portahol".

Key words: Conflict, pomegranate, peach, portahol, family, communication.

KIRISH

Adabiyotda ko'plab iste'dodli yozuvchilar o'z asalarida tabiat, uning go'zalligi va inson ruxiyati o'rtasidagi o'zaro badiiy ifodalaydilar. Shular qatorida, A.Qahhorning "Anor" va O.Genrening "Shaftoli va Po'rtahol" hikoyasini bir biriga o'xshash jixatlari, hikoya markazida bir oilaning hayoti va ulardagi konfliktlar, o'ziga xos qiyinchiliklari va murakkabliklarini tasvirlaydi. Har ikkala asar ham insonning ichki va tashqi qiyinchiliklari, shaxsiy kurashlari va jamiyatning ta'sirini chuqur ko'rsatadi.

Anor" hikoyasining boshlanish qismida ushbu epigraf orqali

"Uylar to'la non, och-nahorim bolam,

Ariqlar to'la suv, tashnai zorim bolam."⁴⁹

A.Qahhor hikoyaning umumiy mazmunini ochib bergan deb o'ylayman. Anor hikoyasining bosh qahramonlari Turobjon va xotini dep o'ylaymiz. Ammo tadqiqitchi Shaxloxon Rasulovaga ko'ra, "struktural talqinda bosh qahramon –Turobjon ham, uning xotini ham emas. Anor! Asar konfliktining bosh sababi ham, syujetdagi tugun ham, yechim ham anorga bog'liq. Bu faqat sarlavhada aks etgani uchun emas, balki hikoya syujeti ham "anor" (anor deb tasavvur qilingan narsa)ning asar voqeasiga kirishi bilan boshlanadi va anor (haqiqiy anor)ning xonadonga kirib kelishi bilan yakunlanadi... Anor –muloqot

⁴⁹ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-anor-hikoya> [25.10.2024]



vositasi, kommunikativ birlik. U asosan, qarama-qarshiliklarni birlashtiradi: kun va tun, er va xotin, sevgi va alam, er mushti va xotin ko'zyoshisi.”⁵⁰

Demak, u muvozanatga ham olib keladi. Xotin anorni kutib yashaydi, er anor olib kelishini o'ylab. Anor mojarosi oilani birlashtirishi ham mumkin edi, lekin uning darz ketishiga ham mana shu anor sabab bo'ldi. Bundan tashqari yozuvchi yana anorga qanchadan-qancha ma'noviy yuk ortgan. Anor –to'qlik belgisi (Mullajon qozining bog'i – bog' emas, naq anorzor). Anor –yorug'lik timsoli, uni o'ylaganda ayolning ko'ngli yorishadi, xuddi mushakdan yorishgan unday. Anor –vaqt timsoli, voqea anor pishig'ida kechadi.

Asarda O.Genri o'ziga xos badiiy til va tasviriy vositalar orqali tabiat va insoniyatning chuqur muloqotini yaratadi. Har bir element mevalar, qahramonlar, hatto muhit — o'z ma'nosiga ega. “Shaftoli va Po'rtahol” hikoyasining boshlanishida yangi turmush qurgan yosh oilaning baxtliligi xar narsadan zavqlanishi baxtli yashashi uchun hamma narsa yetarli ekanligidan boshlanadi. Bu hikoyada bosh qahramonlari mashhur bokschi Mak Garri va uning xotini. “Shaftoli va Po'rtahol” ramziy ma'noda kelgan. Asarda shaftoli va po'rtaxol o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar orqali insoniyatning his-tuyg'ulari, orzulari va muammolari tasvirlangan. Shaftoli hayotning quvonchli tomonlarini, po'rtaxol esa murakkabli ekanligini ifodalaydi. Shaftoli: Yumshoq va shirin, sevgi va samimiyatni ifodalaydi. Bu meva qahramonlar o'rtasidagi munosabatlarning go'zalligini ramzlaydi.

Po'rtaxol: Qayg'u va hasratni, shuningdek, hayotning murakkab tomonlarini aks ettiradi. U qahramonlarning orzularidagi qiyinchiliklarni va kurashlarni ifodalaydi

Hikoyaning boshida konflikt ya'ni muammoni kelib chiqishiga sabab bo'lgan vaziyatgan duch kelinadi. Ya'ni xotining “Shaftoli yesam bo'larmidi?” degan gap orqali konflikt yuzaga keladi.

Har ikkala asarda ham insoniy hissiyotlar, umid va tashvishlar o'ziga xos tarzda ko'rsatilgan. “Anor” hikoyasining bosh qahramoni Turobjon nochorlik, kambag'alchilik tufayli xotining boshqorong'u paytida yegisi kelgan anorni olib kelib berolmagani va xotini g'ururiga tegib, va u xam xotiniga nisbatan “boshqorog'u bo'lda evida bo'l”, “Jigarlaring ezilib ketsin” gaplari orqali o'rtada nizo kelib chiqadi va inson hissiyotlar, umidlar puchga chiqadi. Shuncha ta'na tazyiqlardan keyin ham o'g'irlik orqali eri anor olib keladi.

“Shaftoli va Po'rtahol” hikoyasida esa eri va xotini o'rtasida hissoyotlar umidlar o'rtasida kelishmovchlik bo'lmaydi. Qahramon oddiy va go'zal bir lahzani eslab shaftoli izlashga chiqadi. Yo'lda magazinlarda so'raganda u mevaning xozir topip bo'lmasligini va topgan taqdirda xam juda qimmatga sotilishini aytishadi. Qahromon izlayotgan payti Shaftolining yo'qligi uni tashvishga soladi, lekin u umidni yo'qotmaydi. U xotini yegisi

⁵⁰ Rasulova Sh. Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasidagi so'zlarning ma'no xususiyatlari. <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/897/1477>



kelganligi sababli, Shaftolini qahramonlik orqali qo'lga kiritadi va uni yo'qotib qo'ymaslik uchun cho'ntagida qo'lining issiq kafti bilan ushlab keladi.

Ikkita asarning ham yakunlash qismiga e'tibor qaratsak, "Anor" hikoyasida

⁵¹Tom orqasida xo'roz qanot qoqib qichqirdi. Ko'cha eshigi ochildi. Xotin to burilib qaraguncha Turobjon katta bir tugunni orqalab kirib keldi. U tugunni uyning o'rtasiga tashladi. Bir choyshab anor har tomonga yumalab ketdi, bir nechasi obrezga tushdi. Turobjon xotinigga qaradi. Uning rangini ko'rib xotin qo'rqib ketdi — bu qadar oqargan! Turobjon o'tirib peshonasini ushladi. Xotini yugurib oldiga keldi va yelkasiga qo'lini qo'ydi. — Qayoqqa bordingiz? — dedi entikib. — Nima qildingiz? Turobjon javob bermadi. Uning vujudi titrar edi."

Xo'roz qanot qoqib qichqirishini va eshik ochilishini majoziy ma'noda olib qaraydigan bo'lsak, xo'roz qichqirgani nimadandir xabar berayotgani va shu narsa uyga kirganligidan xar tomonga yoyilib ketayotganini tushunish mumkin. Anorni topip keldi lekin qayerdan, qaysi yo'l bilan olib keldi, bu noma'lum. U endi tug'uladigan farzandiga qaysi yo'l bilan luqma topip kelgan. Balkim xarom yo'l bilan ya'ni o'g'irlik orqali olib kelgan bo'lishi mumkin. To'g'ri bu dinimizga to'g'ri kelmaydi. "Shunga binoan, oz bo'lsada, qanoat qilib, homilador bo'lgan onaga haloldan yedirsinlar. Homilador ona istagan narsasini ota olib kelishga harakat qiladi."⁵² Va ya'na "Saodat asri qissalari kitobida xam tug'ilmagan farzandga xalol luqma yedirish masalasi muxum o'rin egallaydi. Onaning halol va toza ovqat iste'mol qilishi zarurligi aytib o'tiladi. Onaning ovqatlanishi tug'ilayotgan farzandning ruhiy va jismoniy rivojiga ta'sir qilishi, shuning kelajakdagi tarbiyasida xalol luqaning ahamiyati ta'kidlanadi".⁵³

Bu narsa to'g'ri lekin bizning fikrimizcha, Turobjon ham tug'ilajak farzandini o'ylagan xolda, xotini erining g'ururiga tegadigan gaplarini eshitib chiday olmayotganligi sababli bu narsaga majbur boldi dep o'ylayman.

"Shaftoli va Po'rtahol" hikoyasida:

"Darhaqiqat, mana, u suyuklisining o'rindig'iga egilib, qo'lga shaftoli tutqazdi. – Yaramas kichkintoyim! – oshiqona ming'illadi kelinchak. – Nahotki, shaftoli so'ragan bo'lsam? Men jon deb po'rtahol yegan bo'lardim. Baxtli bo'l, kelinchak!"⁵⁴

Bu yerda ham Shaftoli achinarli holatda, qimorxonadan olib kelinadi. Bu hikoyada shunchaki aytib o'tilgan, Shaftoli hech qayerda yo'q bo'lsa Po'rtahol ham uning o'rnini bosishi mumkinligini aytadi. Lekin qayerdan olib kelishi uni qiziqitirmaydi.

⁵¹ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-anor-hikoya> [25.10.2024]

⁵² "FARZAND TARBIYASIDA AHAMIYATLI JIHATLAR", Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi <https://www.bukhari.uz/?p=29824&lang=oz> [27.10.2004]

⁵³ A.Lutfiy Qozonchi "Saodat asri qissalari" "Munir" nashriyoti 2021

⁵⁴ ⁵⁴ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/o-genri-1862-1910-aqsh/o-genri-shaftoli-va-po-rtahol-hikoya> [25.10.2024]



“Abu Abdulloh No‘mon ibn Bashir roziyallohu anhu rivoyat qiladi: Men Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shunday deganlarini eshitdim: «Darhaqiqat halol narsalar aniqdir, harom narsalar ham aniqdir. Ikkisining o‘rtasida shubhali bo‘lgan narsalar ham borki, ko‘pchilik ularni bilmaydi. Bas, kimki shunday shubhali narsalardan o‘zini ehtiyot qilsa, dinini, nomus – obro‘cini pokiza asrab qoladi. Buning misoli birovning qo‘rg‘oni atrofida podasini o‘tlatib yurgan cho‘ponga o‘xshaydi. U qo‘ylarining behosdan o‘sha qo‘rg‘onga ham kirib ketishidan omonda bo‘lmagani singari, shubhali narsalardan o‘zini ehtiyot qilmagan kishi keyinchalik haromga ham aralashib qoladi. Ogoh bo‘ling! Har bir podshohning qo‘rg‘oni bo‘ladi. Ogoh bo‘ling! Alloh taoloning qo‘rg‘oni uning harom qilgan narsalaridir. Ogoh bo‘ling! Jasadda bir parcha go’sht borki, agar u sog‘lom bo‘lsa, butun jasad sog‘ – salomat bo‘ladi. Agar u aynisa, jasadning qolgan qismi ham buziladi. U bir parcha go’sht qalbdir». Buxoriy va Muslim rivoyati”⁵⁵.

XULOSA.Ushbu maqola A.Qahhorning "Anor" va O.Genringning "Shaftoli va Po‘rtahol" hikoyalaridagi inson ruxiyati va ularning o‘zaro aloqalarini badiiy ifodalashga bag‘ishlangan. Har ikki asarda oilaviy munosabatlar va ichki konfliktlar chuqur ko‘rsatilgan. "Anor" hikoyasida anor ramziy ma‘noga ega bo‘lib, u Turobjon va uning xotini orasidagi muammolarni belgilaydi. "Shaftoli va Po‘rtahol" hikoyasida esa shaftoli va po‘rtaxol o‘rtasidagi farqlar inson his-tuyg‘ularining murakkabligini tasvirlaydi. Har ikkala asarda konfliktlarning kelib chiqishi va hal etilishi orqali insoniyatning hissiyotlari, umid va tashvishlari chuqur yoritilgan. Xulosa qilib aytganda, bu asarlar orqali inson ruhiyatining badiiy ifodasi, shuningdek, insoniy muammolar va ularning yechimlari ko‘rsatib berilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Abdulla Qahhor “Anor” hikoyasi – Toshkent, 2013.
- 2.O.Genring “Shaftoli va Po‘rtaxol hikoyasi -Toshkent, 2015.
3. Rasulova Sh. Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasidagi so‘zlarning ma‘no xususiyatlari.<http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/897/1477>
- 4.FARZAND TARBIYASIDA AHAMIYATLI JIHATLAR”,Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi <https://www.bukhari.uz/?p=29824&lang=oz> [27.10.2004]
5. A.Lutfiy Qozonchi “Saodat asri qissalari” “Munir”nashriyoti 2021
6. Internet manbalarida foydalanilgan.

⁵⁵ Луқмадаги ҳалоллик — ahlisunna.uz[28.10.2024]

